



2021- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatida jami **2564,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2020- yil	01.12.2021- yil	
Jizzax viloyati	2022	2020	99,9
Jizzax sh.	860	869	101,0
tumanlar:			
Arnasoy	58	58	100,0
Baxmal	74	68	91,9
G'allaorol	124	134	108,1
Sh. Rashidov	351	330	94,0
Do'stlik	63	68	107,9
Zomin	123	124	100,8
Zarbdor	102	103	101,0
Zafarobod	25	24	96,0
Mirzacho'l	50	51	102,0
Paxtakor	80	81	101,3
Forish	64	71	110,9
Yangiobod	48	39	81,3


Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.12.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (43,1 %), Sh. Rashidov (16,3 %) va G'allaorol (6,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **133,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **151,9** % bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,5** % punktga ko'paydi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 12,6 %), Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,5 %), Zafarobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 1,2 %), ga to'g'ri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,8 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichlariga nisbatan **3,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **103,2 %** ni tashkil etgan holda **1841,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,0 %** ni tashkil etdi yoki **590,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **103,5 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 55,8 mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2508,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,2 % va 97,8 % ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-noyabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **82,5 %** i yoki **2116,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

82,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **84,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,0 %** ni tashkil etdi

4,0 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1506,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **71,2 %** ni tashkil etdi.

71,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **526,0** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,8 %** ni tashkil etdi.

24,8 %




**2021- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Jizzax viloyati	2564,4	105,1	2116,5
Jizzax sh.	988,8	103,0	816,1
tumanlar:			
Arnasoy	37,4	100,5	30,8
Baxmal	83,3	104,1	68,7
G‘allaorol	160,6	99,8	132,5
Sh. Rashidov	396,5	103,4	327,3
Do‘stlik	60,4	123,1	49,9
Zomin	232,9	104,1	192,3
Zarbdor	114,3	99,8	94,3
Zafarobod	110,8	138,5	91,4
Mirzacho‘l	57,3	104,8	47,3
Paxtakor	182,4	102,0	150,6
Forish	86,7	105,1	71,6
Yangiobod	53,0	153,1	43,7

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,8 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **22,0 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **19,8 %** punktga ko'payib, **69,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko'payib, **27,8 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **15,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,5 %** (**15,7 %** punktga ko'payib) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,7 %** (**0,1 %** punktga ko'paydi)ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **4,2 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **15,5 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **95,8 %** (**15,5 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da



2020- yil
yanvar-noyabr



2021- yil
yanvar-noyabr



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-noyabr oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	2564,4	2115,4	294,1	154,9
Jizzax sh.	988,8	815,7	113,4	59,7
tumanlar:				
Arnasoy	37,4	30,8	4,3	2,3
Baxmal	83,3	68,7	9,6	5,0
G'allaorol	160,6	132,5	18,4	9,7
Sh. Rashidov	396,5	327	45,5	24
Do'stlik	60,4	49,8	6,9	3,7
Zomin	232,9	192,2	26,7	14,0
Zarbdor	114,3	94,3	13,1	6,9
Zafarobod	110,8	91,4	12,7	6,7
Mirzacho'l	57,3	47,2	6,6	3,5
Paxtakor	182,4	150,5	20,9	11,0
Forish	86,7	71,6	9,9	5,2
Yangiobod	53,0	43,7	6,1	3,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **38,4** % i yoki **988,8** mlrd. so'm), shuningdek, Sh. Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **15,5** % i yoki **396,5** mlrd. so'm), G'allaorol tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **6,3** % i yoki **160,6** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73